

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ IQTISODIYOT VA SERVIS UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

O'quv ishlar bo'yicha prorektor

A.Esanov

“ ” avgust

TIBBIYOT KASBIGA KIRISH

FANI BO'YICHA

SILLABUS

Kunduzgi bo'lim uchun

Bilim sohasi: 900000-Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot

Ta'lim sohasi: 910000 – Sog'liqni saqlash

Ta'lim yo'nalishi: 60910300-Pediatrya

TERMIZ – 2024

Fan/modul kodi TKKB1104	O'quv yili 2024-2025	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 4		
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4		
1.	Fanning nomi	Semestr	Auditori ya mashg'ul otlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Tibbiyot kasbiga kirish	1	60	60	120
2.	<p style="text-align: center;">I. Fanning mazmuni</p> <p>Fanning maqsadi – tibbiyot kasbiga kirish moduli o'quv rejaning klinik modullar blokiga taalluqli bo'lib, 1 kursda o'qitiladi va ilk bosqichi hisoblanadi. Tibbiyot kasbiga kirish moduli bo'lajak mutaxassisni tayyorlashning ilk bosqichidan talabalarga kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni boshlaydi, talabalar tomonidan bemor bilan bo'layotgan muammolarni aniq tasavvur qila olish, muloqot qilish, tibbiyot muassasalarida o'zini tutish, bemorlarni parvarish qilishni o'rgatadi.</p> <p>Fanning vazifasi – modulni o'qitish uchun biologiya, anatomiya, fiziologiya, kimyo fanlari nazariy zamin bo'lib xizmat qiladi. Tibbiyot kasbiga kirish moduli keyinchalik ichki kasalliklar propedevtikasi, bolalar kasalliklari propedevtikasi, umumiy xirurgiya va bolalar xirurgiyasi modullari uchun nazariy zamin bo'lib xizmat qiladi.</p> <ul style="list-style-type: none"> – deontologiya va etika tamoyillarini talabalar ongiga singdirish; – klinikaning qabul bo'limi, bemorlar davolanadigan bo'limi, reanimatsiya intensiv terapiya bo'limlari tuzilmalari, ularning ishini tashkil qilish asoslari bilan tanishtirish; – bemorlarni qabul qilish qoidalarini o'rgatish; – kattalar, bolalar va o'smirlarni statsionar davolash tizimida parvarish qilishni o'rgatish; – davolash muassasalaridagi tizimni o'rgatish; – kasalxona bo'limlariga yotadigan va yotgan bemorlarga sanitar ishlov berish qoidalarini o'rgatish; – bog'lov xonasi va muolajalar xonasida ishlash qoidalari bilan tanishtirish; – kasalxona ichi infeksiyasi to'g'risida tushuncha berish va uni oldini olish qoidalari bilan tanishtirish; – kasallik turi va og'irlik darajasi, bemorning yoshiga qarab ovqatlantirishni o'rgatish; – dori vositalarini qabul qilish usullari va kiritish yo'llarini o'rgatish; – bemorlarni tezkor va rejali operatsiyalarga tayyorlashni o'rgatish; – jonlantirish bo'limida davolanayotgan va jonlantirish bo'limidan chiqqan bemorlarni parvarish qilishni o'rgatish; 				

- hayot uchun xavfli holatlarda (yurakning to‘xtashi, nafas olishning buzilishi, qon ketishi, zaharlanish, kuyish, sovuq qotish, aspiratsiya) bemorlarga birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatishni o‘rgatish;
- laborator tekshiruv uchun biologik materiallarni to‘plashni o‘rgatish;
- bemorlarni parvarish qilishning zamonaviy usullari to‘g‘risidagi ilmiy adabiyotlardan foydalanishni o‘rgatish.

II. Asosiy nazariy qism Maruza: mavzulari

1-mavzu. Talabalarni “Tibbiyot kasbiga kirish” moduli bilan tanishtirish. Tibbiyot deontologiyasi, shifokor siri, shifokor xatolari (yatrogeniya) to‘g‘risida tushuncha berish. Turli yoshdagi bemorlar va ularning yaqinlari bilan muloqat turlari to‘g‘risida ma’lumot berish. Turli yoshdagi bemorlarni parvarish qilish to‘g‘risida zamonaviy tushunchalar.

2-mavzu. Turli yoshdagi bemorlarni parvarish qilishning zamonaviy usullari. Tibbiyotda etika va deontologiya tamoyillari. Shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish hususiyatlari.

3-mavzu. Antiseptika va aseptika asoslarini o‘rganish. Bolalar kasalxonasining tuzilishi. Kasalxonani ishlash tartibi. Dezinfeksiya turlari. Dezinfeksiyalovchi suyuqliklarni tayyorlash va ishlash texnikasi.

4-mavzu. Hazim azolari kasalliklarida bemorlarni parvarishlash va nazorat qilish. Parhez stollari tug‘risida tushuncha. Turli yoshdagi bemorlarni ovqatlantirish. Dorilarni organizmga yuborish yullari [enteral,parenteral] Bemorlarda parhez tushunchasi.

5-mavzu Nafas olish azolari,yurak qon-tomir tizimi, va siydik hosil qilish va ajratish azolari kasalliklarida bemorlarni parvarishlash va nazorat qilish.

6-mavzu Operatsiyadan keyingi bemorlarni olib borish tartibi. Reanimatsion bemorlar va Terminal xolatdagi bemorlar parvarishi

III. Amaliy (laboratoriya) mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quydagi mavzular tavsiya etiladi:

1.Terapevtik bemorlarni parvarish qilish

1–mavzu. Bolalarga va o‘smirlarga davolash-profilaktik yordam ko‘rsatishning zamonaviy tamoyillari. JSST va BMT ning “Bolaga yaxshi munosabatli shifoxona” bolalar fondining tashabbus tamoyillari. Bolalar parvarishi va tarbiyasida tibbiyot xodimlarining o‘rni. Tibbiyot xodimlari faoliyatining etik-deontologik tamoyillari.

2-mavzu. Bolalar kasalxonasining tuzilishi. Bolalar kasalxonasini ishlash tartibi. Dezinfeksiya turlari. Dezinfeksiyalovchi suyuqliklarni tayyorlash va ishlatish texnikasi. Bemor bolalar ota-onalarining tashrifi va oziq-ovqat olib kelishini nazorat qilish. Bolalar shifoxonasi xodimlarining shaxsiy gigiyenasi. Turli yoshdagi sog‘lom va bemor bolalarni shaxsiy gigiyenasi. Chaqaloqlarni cho‘mltirish texnikasi. Ko‘z, quloq, sochlarni parvarishi, qizlar gigiyenasini o‘ziga xosligi. Turli yoshdagi bolalarni kiyim kechaklari, poyafzali. Katta yoshdagi bemor bolalarni xojatga chiqishida yordamlashish.

3-mavzu. Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari bilan kasallangan bemorlarni parvarishi va ularning nazorati. Qon aylanishiga ta’sir qiluvchi

tadbirlar: gorchishnik, kompress, grelka, muzli xaltacha. Zuluk qo‘yish usullari. Venadan qon chiqarish.

4-mavzu. Hazm tizimi kasalliklari bilan kasallangan bemorlarni parvarishi va ularning nazorati. Bemorlarni ovqatlantirish. Parhez stollari va uning bemorlarni davolashda ahamiyati. Huqnalar. Bemorni endoskopik tekshirishga tayyorlash. Ichak faoliyatini nazorat qilish. Laboratoriyada tekshirish uchun axlat olish. Oshqozonni yuvish. Ko‘rsatmalar va qarshi ko‘rsatmalar.

5-mavzu. Buyrak va siydik ajratuv yo‘llari kasalliklari bilan kasallangan bemorlarni parvarishi va ularning nazorati. Laboratoriyada tekshirish uchun siydik olish qoidasi. Bemorlarni instrumental tekshiruvga tayyorlashlar. Siydik qopining kateterizatsiyasi. Ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalar.

2.Xirurgik bemorlarni parvarish qilish

1-mavzu. Xirurgik bemor bolalarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularni qabul qilishda shifokorning tutgan o‘rni. Bioetika va deontologiya asoslarini xirurgik bemor bolalarni qabul qilishda qo‘llashning ahamiyati. Xozirgi zamon tibbiyotida yatrogeniya va evtanaziya muammolari

2-mavzu.Antiseptika va aseptika asoslarini o‘rganish, xirurgik bemorlarni qabul qilishda sanitar ishlov berishning ahamiyati.

3-mavzu.Shifoxona ichki infeksiyasi, «shaxsiy gigiyena» xaqida shifokorning – bemor bilan muloqot qilishi.

4-mavzu.Xirurgik bemor bolalarni kuzatish va davolash muolajalari. Narkoz tushunchasi, turlari, asoratlari bo‘yicha shifokorning bemor bilan mulokot qilishining ahamiyati. Bemor bolaning ruxiy xolati - tushkunlik, shok, qo‘rquv, g‘am - andux, xayajon xolatlarida shifokorning tutgan o‘rni.

5-mavzu. Operatsiyadan keyingi davrida shifokor tomonidan olib borishi lozim bo‘lgan parvarish muolajalarining ahamiyati. Ovqatlantirishni tashkillashtirish. Operatsiyadan keyingi davr bo‘yicha shifokorning bemor bola bilan muloqoti.

6-mavzu.Terminal xolatdagi og‘ir bemor bolalarni olib borishda–bemor bolani axvoli xaqida xabar.

7-mavzu. Og‘ir xirurgik bemor bolalarda kiyim–kechak va oqliqlarni almashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari, yotok, yaralarni oldini olishda shifokorning tutgan o‘rni.Terminal holatlar va reanimatsiya asoslari

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurilmalari jihozlari bilan jihozlangan auditoriyalarda har bir akademik guruhga alohida o‘tiladi. Mashg‘ulotlarda faol va interfaol usullar qo‘llaniladi. “Loyihali o‘qitish”, “Keys-stadi” va boshqa texnologiyalaridan foydalaniladi. Tarqatma materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari yordamida uzatiladi.

IV. Amaliy ko‘nikmalar

1. Og‘ir yotgan turli yoshdagi bemorlarning choyshabini, kiyimini (kuylagini) almashtirish texnikasi;
2. Og‘ir yotgan bemor quloqlariga, burniga, sochlariga va og‘iz bo‘shlig‘iga gigiyenik ishlov berish va tahorat qilish (oraliq sohasini yuvish) texnikasi;
3. Og‘ir yotgan bemorga tuvak (sudna) tutish texnikasi;

4. Og'ir yotgan bemorlarda yotoq yaralar profilaktikasini o'tkazish qoidalari;
5. Turli yoshdagi bemorlarni ovqatlantirish;
6. Bemorlarni transportirovka qilish;
7. Tana haroratini o'lchash;
8. Arterial qon bosimini o'lchash;
9. Antropometriyani o'tkazish;
10. Nafas va yurak to'xtaganda shoshilinch birinchi yordam (sun'iy nafas berish, yurakni bilvosita uqalash) berish;

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

1. Organizmni chiniqtirish usullari
2. Akselerasiya
3. Zararli odatlar
4. Avitaminoz va gipovitaminozlar
5. Giperaktiv bola
6. Hozirgi zamon tibbiyotida yatrogeniya muammolari.
7. Evtanaziya muammolari.
8. Patsient bilan verbal va noverbal muloqot ko'nikmalari.
9. Bemorlarning ruhiy holati «Depressiya, shok, qo'rquv, cho'chish, ipoxondriya, o'zini aybdor xis qilish», suyitsidal fikrlash va x.k.
10. Krizis holatda bo'lgan bemorga maslahat berish. Yo'qotish, bemor holatini o'ziga xosligi.
11. Keksa bemor. Keksa organizmning fiziologik xususiyatlari
12. Xirurgiya va reanimatsiya bo'limlari asosiy jihoz va anjomlari;
13. Xirurgiyada hospital infeksiyani profilaktikasi
14. Bemorlarda yotoq yaralarini oldini olish
15. Xirurgik stomani parvarish qilish

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzular bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- berilgan mavzular bo'yicha prezentatsiyalar tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tayyorlash va h.k.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Fan bo'yicha mustaqil ish auditoriyadan tashqari o'tkaziladi. Talabalar tavsiya etilgan mavzulardan esse, referat, prezentatsiyalar va grafik organayzerlarini tayyorlab, o'qituvchiga darsdan tashqari bo'lgan vaqtda taqdim etadilar. Taqdim etilayotgan ishda mavzuni atroflicha ta'rif berilib, asosiy urg'u shu mavzuni tibbiyotdagi ahamiyatiga qaratilgan bo'lishi kerak. Bajarilgan ish dolzarbligi, yangi ilmiy ma'lumotlar saqlagan, animatsiya va videofilmlar bilan boyitilgan bo'lishi kerak.

3.	<p style="text-align: center;">VI. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • davolash va profilaktika muassasalarining turlari; dezinfeksiya, sterilizatsiya, aseptika va antiseptika; kasalxona xodimlarining shaxsiy gigiyena qoidalari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi; (bilim) • davolash va profilaktika muassasalarining va tibbiy hujjatlarning turlarini; kasalxona xodimlarining shaxsiy gigiyena qoidalarini; turli yoshdagi bemorlarni parvarish qilish va uning ahamiyatini; dezinfeksiya, sterilizatsiya, aseptika va antiseptika qoidalarini; turli yoshdagi bemorlarni ovqatlantirish va idishlarga qayta ishlov berishni; harakat rejimini; «reanimatsiya», «klinik o‘lim», «biologik o‘lim» tushunchalarini; dori vositalarini berish usullari; bemorlarga sanitar ishlov berish turlarini; bemorlarni tekshiruvlarga tayyorlashni bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko‘nikma) • joriy va yakuniy dezinfeksiya o‘tkazish; hayot uchun xavfli holatlarda birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatish va tananing turli qismlarini immobilizatsiya qilish; birlamchi tibbiy muolajalarni bajarish (termometriya, antropometriya, nafas olish soni, yurak urish sonini aniqlash, arterial qon bosimini o‘lchash); davo muolajalarini o‘tkazish (ingalyatsiyalar, gorchish qo‘yish va boshq); og‘ir bemorlarni parvarish va transportirovka qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. (malaka)
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma’ruzalar; • amaliy ishlarni bajarish va xulosalash; • interfaol keys-stadilar; • blis-so‘rov; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • jamoa bo‘lib ishlash.
5.	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha test topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.Xalmatova B.T., Karimov M.Sh. Oxunov A.O., va boshq. Tibbiyot kasbiga kirish, Darslik. Toshkent. 2021 y. 2. Xudoyqulov B.K. Kenjayev Yo.M. Hirurgiya asoslari. o`quv qo`llanma Toshkent. 2024 y. 3.Oxunov A.O. Xirurgik klinikasiga kirish, Elektron darslik. TTA. 2018 y. 4.A.K.Jamolov, N.Z.Xayriyeva, Sh.E.Hamroyeva., va boshq. Hamshiralik ishi texnikasi. 2024 <p style="text-align: center;">Qo‘shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Бабаджанов Б.Д., Охунов А.О. Понятие о хирургии. Организация работы

- хирургического отделения, Методическая рекомендация сценариев проведения практических занятий с использованием интерактивных методов обучения. Ташкент. 2012 г.
2. Бабаджанов Б.Д., Охунов А.О. Асептика. Сценарии для проведения практических занятий с использованием современных педагогических технологий составленные на основе единой методической систем, Методическая рекомендация. Ташкент. 2018 г.
 3. Бабаджанов Б.Д., Охунов А.О. Антисептика. Сценарии для проведения практических занятий с использованием современных педагогических технологий составленные на основе единой методической систем, Методическая рекомендация. Ташкент. 2018 г.
 4. Бабаджанов Б.Д., Охунов А.О. Обследование хирургического больного. Курация больных. Схема академической истории болезни. Сценарии для проведения практических занятий с использованием современных педагогических технологий составленные на основе единой методической систем, Методическая рекомендация. Ташкент. 2018 г.
 5. Qodirov I. Hamshiralik ishi asoslari, Darslik. Toshkent. 2015 y.
 6. Краснов А.Ф. Сестринское дело. 1-2 том. Учебное пособие. Москва. 2000 г.
 7. Морозова Г.И. Основы сестринского дела. Ситуационные задачи. Практикум для медицинских училищ и колледжей. Москва. 2009 г.
 8. Мухина С.А., Тарновская И.И. Основы сестринского дела, Практическое руководство к предмету. Москва. 2003 г.
 9. Охунов А.О., Қаюмов Т.Х. Что такое хирургия?. Электронное учебное пособие (на узбекском, русском и английском языках). Ташкент. 2014 г.
 10. Охунов А.О. История развития современной хирургии. Электронный учебник. Ташкент. 2018 г.
 11. Охунов А.О. Сценарии и сборник заданий для практических занятий по общей хирургии с использованием современных педагогических технологий. Учебно-педагогическое пособие для преподавателей по дисциплине «Общая хирургия». Ташкент. 2018 г.
 12. Okhunov A.O. What is surgery? For students of medical educational institutions. Elektronnoe uchebnoe posobie. Tashkent. 2018 g.
 13. Charles F. Brunicaudi. Schwartz's principles of surgery. 10 th edition. 2015
 14. Das S. A manual clinical surgery. Special investigations and differential diagnosis. 11th edition. 2014.
 15. John Lumley et all. Demonstrations of physical signs in clinical surgery. 19th edition. 2013.

Internet saytlari:

[www. Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
www. medlibrary
www. pubmed.gov

	http://www.zub.ru www. medline. ru www. med.ru
7.	Fan dasturi Termiz iqtisodiyot va servis universiteti O‘quv-uslubiy kengashining 2024-yil 29-avgustdagi 4-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun mas’ullar: _____ - Tibbiyot kafedrasi o`qituvchisi
9.	Taqrizchilar: B.K.Xudoykulov - Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent – Tibbiy klinik fanlar kafedrasi mudiri D.Ya.Xodjaev - Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent